BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA XALQARO TAJRIBALARNING YO‘NALISHLARI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI



Buxoro – 2023 y

chiqib, matn qahramonlari hatti harakatini tahlil qilish mumkin. Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda bir yo‘la mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Texnologiyaning maqsadi: o‘quvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda muammo yechimini topishga hamda kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir etishga, uni ma’qullashga, shuningdek, mavzuga oid umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzu yuzasidan egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Egamberdieva F. Adabiy ta’limga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish metodikasi. Ped. fan. nom.diss. – T., 2005 y

2. Эльконин Д.Б. Детская психология: Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М.: Издательский центр " Академия", 2004 г.

3. 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish uchun 3-mashq daftari, b-3.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNI SAMARALI YO‘LGA QO‘YISHNING ZARURIYATI

Qambarov Mirzobobur Bahodir o‘g‘li
BuxDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy faoliyat asosida o‘quvchilarni hayotga tayyorlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Tarbiya, muammo, sog‘lom, millat, jamiyat, qadriyat, jarayon, muassasa

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы подготовки учащихся к жизни на основе образовательной деятельности в системе начального образования.

Ключевые слова: Образование, проблема, здоровое, нация, общество, ценность, процесс, институт

Abstract: The article discusses the issues of preparing students for life based on educational activities in the primary education system.

Keywords: Education, problem, healthy, nation, society, value, process, institution

Bugungi kun mamlakatimiz ta’lim tizimida ta’limiy jarayon hamda tarbiyaviy ishlarning mazmuni barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan. Respublikamizning barcha maktabgacha va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun barcha tashkilotlar jalb qilinib, davlat siyosati darajasidagi qator hujjatlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqilgan. Birgina - Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunning qabul qilinishi yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, istiqbolli vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan shaxs qiyofasini shakllantirishga yo‘naltirilganligi ham bejiz emas.

Barkamol inson tarbiyasi - yoshlarni har tamonlama to‘laqonli darajada voyaga yetkazish asosida ularda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat hamdir. Bu faoliyat shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy, ruhiy, ijodiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan. Shunday ekan, bu jarayon insonning jamiyatda to‘laqonli yashashi va faoliyat yuritishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning natijador amaliyoti bo‘lmog‘i lozim.

Tarbiya masalalari hayotimizga shu darajada o‘rnashib shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan xususuyatlarni o‘zida mujassam etganki, bu jarayon shaxs va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi. Mamlakatimizda tarbiya inson omilini shakllantirish, uning ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma’rifiy hayotida faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar majmuining sifatini anglatadi.

Tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan jarayonlar bo‘libgina qolmay, uning yetakchi g‘oyalari ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar orqali singdirilgan mafkurani ham o‘z ichiga oladi. Zero, tarbiya ta’limga nisbatan kengroq bo‘lgan tushunchadir. Bunday xususiyat tarbiyaning oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilishini nazarda tutadi.

Shu jihatdan tarbiya sifatli ta’lim olish bilan uzviy ravishda bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ta’lim – tarbiya orqali shaxsda ezgu ma’naviy – axloqiy sifatlar tarkib toptiriladi. Chunki ta’lim – tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya’ni xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan muhim zaruratdir. Binobarin, ta’lim – tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi. Oilada har qaysi ota – ona, ta’lim tashkilotida ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo yetuk shaxsni ko‘rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta’lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma’naviy-tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma’naviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o‘qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikdagi boshqaruvini ta’minlash.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko‘p jihatdan ustoz va shogirdlarning ijodiy

faoliyatini tashkil etishga ham bog‘liq. Ular quyidagi omillarni qo‘llash asosida vujudga keladi:

- **tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi munosabatlar** - bunda o‘quvchilar hayotining kundalik voqealari, jamoadagi tartib qoida va xulq-atvorlar haqidagi motivlar va ularga bir butun yondoshuv.

- **tarbiyaviy ishlarning maqsadi, aniqligi va ta’sirchanligi** - tarbiyaviy jarayonni loyihalashtirish, uning shakl, metod, shart – sharoitlarni oldindan aniqlab qo‘yilgan maqsadga muvofiqlashtirish;

- tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari - tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning ruhiy holatlari, muloqot va munosabatda bo‘lishlari, ruhiy shart – sharoitlarning yaratilishi, tarbiyaviy tadbirlarni salomatlik, sog‘lom turmush tarsi va gigiyena qoidalariga moslash, estetik talablarga javob berishi, tarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli tashkil etish funksiyalaridan biridir;

- o‘quvchi – yoshlarning faolligi va mustaqil ijodiy faoliyatini tashkil etish - tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilishda o‘quvchi yoshlarning faolligi ko‘p jihatdan ixtiyoriylik, tashkilotchilik va ijodkorligiga bog‘liq;

- tarbiyaviy ishlar ta’lim jarayonida olgan bilimlariga uyg‘un bo‘lishi - tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda turli fanlarning integrasiyasi hisobga olish ijobiy xarakter kasb etadi.

Tarbiyaviy ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish yosh avlodni har tamonlama barkamol avlod qilib tarbiyalash, ular ongiga milliy g‘oyani singdirishda har tamonlama ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning ilm olishi, o‘z qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish ta’kidlanadi. Ta’lim to‘g‘risida qabul qilingan qonunda maktabning, unda amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiyaning mazmuni amalga oshirilishi lozim bo‘lgan tarbiyaning vazifalari batafsil belgilab berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

4. Ergashev I. Taraqqiyot falsafasi. – T.: Akademiya. 2000. – 49 b
5. Erkaev A. Milliy g‘oya va ma’naviyat. – T.: Ma’naviyat, 2002. – 240 b

Abdullayeva Feruza Nurillayevna, Bobomurodova Shahnoza Alisherovna. O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIGIDA IFODALANGAN HIKOYALARNI KREATIV TOPSHIRIQLAR ASOSIDA TAHLIL QILISH METODIKASI..... 67
Рузиева Майрам Амруллаевна, Соколова Елена Олеговна МЕТОДЫ И ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МОДЕЛИ 4К (КОММУНИКАЦИЯ, КРИТИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ, ТВОРЧЕСТВО, СОТРУДНИЧЕСТВО) В ИНТЕГРАЦИИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ……..... 71
Abdullaeva Muxayyo Iskandarovna SIFATLI TA’LIM INTEGRATSIYASIDA 4 “K” MODELINI QO‘LLASHNING USUL VA AFZALLIKLARI (TARBIYA VA ONA TILI FANLARI MISOLIDA)…….. 76
Muqimova Gulnora Rashidovna O`QUVCHILARDA MANTIQIY, TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASH KO`NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA TURLI METODLARDAN FOYDALANISH……. 80
Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi BOSHLANG`ICH SINFLARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI…… 85
Nizomova Zamira Sanaqulovna BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINING KREATIVLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI…….. 90
Abdullayeva Feruza Nurillayevna, Kayumova Maqsad Ashurovna BOSHLANG‘ICH SINF ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLIKLARIDA HIKOYA O‘QITISH METODIKASINING AYRIM MASALALARI..... 94
Рузиева Майрам Амрилоевна ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К МОДЕЛИРОВАНИЮ УРОКА ПРИ ВАРИАТИВНОСТИ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ……. 98
Muminjonova Muhayyo G‘ulomovna UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA DARSLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY O‘QUV MATERIALLARI MAZMUNINI MODELLASHTIRISH……... 106
Xolmatova Mehri Ne’matovna. BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI…….. 113
Asatova Marjona XXI ASR KO‘NIKMALARI – 4 K MODELI. ZAMONAVIY TA’LIMGA INNOVATSION YONDASHUV…… 116
Aslanova Sanobar Sulaymanovna “4K” MODELINI QO‘LLASH ORQALI O‘QUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH..... 120
S.A.Qo‘ziyeva, D.A.Qo‘ziyeva TALABA-YOSHLARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONLARINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH..... 126

2-YO‘NALISH: O‘QUVCHILAR BILIMINI MONITORING QILISH ASOSIDA PEDAGOGIK FAOLIYATGA O‘ZGARTIRISHLAR KIRITISH MUAMMOLARI

Haydarov Yuldash Hazratovich TA’LIM INTEGRATSIYASI - O‘QUVCHILAR DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISH OMILI…… 131
Astanov Rustam Vohidovich INNOVATSION G‘OYALARNI KIRITISH, TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI……. 136
Ubaydulla Axrorovich Qosimov KICHIK MAKTAB YOSHIDA AXBOROT QABUL QILISH DOMINATLIGINING AHAMIYATI…… 144
Aslanova Nozima Xakimovna Vahidova Sitora Himmatilloyevna BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MATN USTIDA ISHLASHNING RETROSPEKTIV VA PROSPEKTIV USULLARINI QO‘LLASHNING AHAMIYATI……..... 151
Qambarov Mirzobobur Bahodir o‘g‘li BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TARBIYAVIY FAOLIYATNI SAMARALI YO‘LGA QO‘YISHNING ZARURIYATI…… 154
Хамидова Гулнора Юлдашбаевна ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В ГРУППАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ……. 158
Botirova Nigora Koyirovna O‘QUVCHILAR BILIMINI MONITORING QILISHDA BULUTLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH……..... 163
Safarov Dilmurod Xalimovich RAHBARLARNI PSIXOLOGIK SARALASHDA QO‘LLANILADIGAN